

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 148 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises.....	60
Matchanov Umirzak Seytjanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях	136
Muradov Botir Xayat	



OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI, TARTIBI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Istamova Sojida Kaxarovna

Bank-moliya akademiyasi

“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti

E-mail: sojidaistamova@mail.ru



Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati va dolzarbligi yoritilgan. Xususan, 2024-yilda byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha hisobot tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari o'rganilgan va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, davlat tomonidan moliyalashtirish, byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar, kadrlar tayyorlashda davlat buyurtmasi, samarali moliyalashtirish, maqsadli indikatorlar, moliyaviy mustaqillik.

Abstract. This article explores the significance and relevance of financing higher education institutions in the development of the education system. It analyzes the 2024 report on the implementation of target indicators for the use of budgetary funds. The article also examines ways to improve financing mechanisms within the education system and presents practical proposals.

Key words: higher education, state financing, budgetary and extra-budgetary funds, state order for personnel training, effective financing, target indicators, financial autonomy.

Аннотация. В статье рассматриваются значение и актуальность финансирования высших учебных заведений в развитии системы образования. Проведен анализ отчета о выполнении целевых показателей использования бюджетных средств в 2024 году. Также изучены пути совершенствования механизмов финансирования образовательной системы и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: высшее образование, государственное финансирование, бюджетные средства, внебюджетные фонды, государственный заказ на подготовку кадров, эффективное финансирование, целевые показатели, финансовая самостоятельность.

KIRISH

Bugungi jadal iqtisodiy integratsiya davrida mehnat bozoriga raqobatbardosh yetakchi kadrlarni tayyorlash, iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ilmi mutaxassislarni yetkazib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim tizimi azaldan inson faoliyatining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim sohalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, hozirgi ilmiy, texnologik va axborot asrida ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda zamonaviy sivilizatsiyani shakllantirishda ta'limning o'рни sezilarli darajada ortib bormoqda.

Respublikamizda iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmogda. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RBQ-637-sonli Qonuni¹ bu islohotlarning yaqqol dalilidir. Mazkur huquqiy hujjatning qabul qilinishi bilan ta'lim jarayonining barcha bosqichlari tizimlashtirildi, shuningdek, uni moliyalashtirishning asosiy mezonlari belgilanib berildi.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi — ta'lim sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishdan iborat. Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni yetishtirishda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish muhim omil hisoblanadi. Bugungi global sharoitda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy manbalaridan biri — doimiy qiymati ortib borayotgan ta'lim tizimidir. Bu holat, avvalo, oliy ta'limning milliy innovatsion tizimga integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RBQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>



Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga tayanadi. Konstitutsiyaning 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega" deb belgilangan. Ushbu qoida ta'lim sohasidagi islohotlarning aholining barcha qatlamlarini qamrab olishini nazarda tutadi. Bu esa ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 43 foizga yetgan. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari qisqa vaqt ichida zamonaviy infratuzilma, ilg'or o'quv dasturlari, zamonaviy moddiy-texnik baza hamda xalqaro hamkorlik aloqalariga ega innovatsion ta'lim muassasasiga aylanish yo'lida rivojlanmoqda. Bu esa ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlarning samarasi hisoblanadi.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari va tartibi, uni takomillashtirish yo'llari, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish dasturlari, shuningdek, byudjet xarajatlarining maqsadli indikatorlari tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bar-taraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish, ularni samarali moliyalashtirish, moliyaviy mustaqillik va barqarorlikni oshirish, moliyalashtirishning samarali tizimini ishlab chiqish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish yo'llari, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish borasida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va risolalar chop etilgan. Quyida ushbu mavzuga oid tadqiqotlarning ayrimlari tahlil qilinadi.

Professor D. Raxmonov o'zining tadqiqotlarida ijtimoiy sohani moliyalashtirish bo'yicha qator takliflarni ilgari surgan. U oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish va moliyalashtirishning yangi manbalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini oshirish va oliy ta'lim qamrovini kengaytirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishni taklif etadi [1]:

Hukumat tomonidan belgilanuvchi ta'lim to'lovi summasi oliy ta'lim muassasasining imkoniyatlari va natijalarini inobatga olgan holda shakllantirilishi zarur.

Ta'lim to'lovlarini universitetning reytingi bilan bog'liq tarzda belgilash tizimini joriy etish.

To'lov miqdorlarini tabaqalashtirish orqali oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat muhitini rivojlantirish.

Davlat granti asosida o'qiyotgan talabalarning soni kamayishi bilan byudjet xarajatlari qisqaradi.

Dotsent A. Azimov esa oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda xorijiy ilg'or tajribalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. U o'z tadqiqotlarida ta'lim to'lovlarini qat'iy chegaralamaslik va ularning bir qismini davlat byudjeti hisobidan qoplash zarurligini ilgari suradi [2].

Mingat va Tan o'z tadqiqotlarida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab ta'limga yo'naltiriladigan xarajatlar turlicha bo'lishini qayd etgan. Ularning fikricha, kam daromadli mamlakatlar asosan boshlang'ich ta'limni moliyalashtiradi, o'rta daromadli mamlakatlar esa o'rta maxsus ta'limga, yuqori daromadli mamlakatlar esa oliy ta'limga ko'proq e'tibor qaratadi [3].

T. Oliveriya o'z tadqiqotlarida yuqori malakali inson kapitali kelajakda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi [4].

Shuningdek, xorijiy olimlar – N. V. Long, L. Yang, S. Marginson, N. L. Alexandra, J. Erina, A. Goksu, I. V. Abankina, O. K. Черыжова, V. M. Fillipov, A. A. Adambekova, T. L. Klyachko, N. B. Ozerova, Ye. A. Polushkina va boshqalar tomonidan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish bo'yicha masalalarni tahlil etishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tahlil metodi orqali tadqiqot mavzusiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari, hukumat qarorlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Bu tahlilning maqsadi — oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishga oid nazariy asoslarni aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy-statistik tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining oxirgi yillardagi statistik ma'lumotlari asosida iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar baholandi. Bu ma'lumotlar asosida oliy ta'limni rivojlantirish dasturlari va byudjet xarajatlari bo'yicha maqsadli indikatorlarning ijrosi tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda turli yo'nalishlarda izchil islohotlar amalga oshirilm-



oqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining strategik maqsadi — oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va tarmoqlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan sohalarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-sonli qarori² qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq:

byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish, byudjet hamda smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va ularning mas'uliyatini oshirish;

byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish hamda ushbu mablag'lardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish uchun mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash shart-sharoitlarini yaratish;

byudjet tashkilotlari xodimlarining mehnatini rag'batlantirish, ularning faoliyati samaradorligini oshirish va malakali kadrlarning uzoq muddatli mehnat faoliyatini rag'batlantirish ko'zda tutilgan.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) tartibi quyidagilarni nazarda tutadi:

byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish, shuningdek byudjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash maqsadida byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish, mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash orqali samaradorlikka erishish;

davlat byudjetidan mablag' oluvchilarning mablag'larni sarflash jarayonini dastlabki va joriy bosqichlarda nazorat qilish;

byudjet tashkilotlarining faoliyati doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birgalikda ularning xarajatlarini moliyalashtirish;

xodimlar mehnatini rag'batlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish va kadrlarning barqarorligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-sonli qarorining³ 7-ilovasiga muvofiq, rivojlantirish va byudjet xarajatlari bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan maqsadli indikatorlarning ijrosi to'g'risidagi hisobot quyidagi jadvalda keltirilgan: (1-jadval)

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-dekabrda PQ-422-sonli qaroriga⁴ asosan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024-yildagi maqsadli indikatorlar ijrosi hisoboti

No	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-yil reja	2024 yil aniqlangan reja	Ijro	Farqi (%)
1.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining joriy xarajatlari (mlrd so'm)	mlrd so'm	4 517,2	3 909,3	3 803,3	97,3
2.	Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi	foiz	43,0	43,0	43,0	100
3.	Innovatsion (spin-off) korxonalar soni	dona	22,0	22,0	22,0	100
4.	Oliy ta'limga qabul qilingan o'quvchilar soni	nafar	207 415,0	207 415,0	208 039,0	100,3
5.	Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar soni	nafar	14 000,0	14 000,0	17 430,0	124,5

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.09.1999 yildagi 414-son <https://lex.uz/docs/-319286>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2024 yildagi PQ-455-son <https://lex.uz/ru/docs/-7283107>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.12.2023 yildagi PQ-422-son <https://lex.uz/docs/-6721144?ONDATE=28.01.2025>



6.	Magistraturadagi xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini qoplash dasturi	mlrd.so'm	200,0	95,9	95,4	99,5
7.	Magistraturada o'qiyotgan xotin-qizlarning ulushi	foiz	26,4	26,4	35,2	133,3
8.	Talabalar turar joyiga ehtiyoj	o'rin	269 200,0	269 200,0	251 983,0	93,6
9.	Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar yotoqxonalar sig'imi	o'rin	9 770 ,0	9 770,0	9 770,0	100
10.	Xalqaro qo'shma ilmiy loyihalar (hamkor xorijiy ilmiy markazlar bilan)	dona	145,0	145,0	115,0	79,3

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti – edu.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2024-yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maqsadli indikatorlar ijrosi 97,3 foizga bajarildi. Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 43 foizga yetdi va belgilangan reja 100 foizga bajarildi. Jami bitiruvchilarga nisbatan qamrov darajasi to'liq ta'minlandi. 2024-yilda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar soni 22 tani tashkil etdi. Oliy ta'limga qabul qilingan o'quvchilar soni 100,3 foizga bajarildi.

Hozirda 108 ta davlat oliy ta'lim muassasasida jami 38 056 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ulardan 17 430 nafari ilmiy darajaga ega bo'lib, ilmiy salohiyat 45,8 foizni tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 447-sonli qarori⁵ talablariga asosan 2024-yilda oliy ta'lim muassasalarining so'rovnomalari asosida 95,9 milliard so'm mablag'lar moliyalashtirildi. Shuningdek, magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin-qizlarning 94,4 milliard so'mlik shartnoma to'lovlari qaytarish shartisiz qoplab berildi. Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi jami magistratlar soniga nisbatan 35,2 foizni tashkil etdi.

Talabalar turar joyiga joylashish tartibi oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirildi va 2024-yilda arizalar elektron tarzda qabul qilindi. Bu orqali ehtiyojlar aniqlashtirilib, 93,6 foizlik bajarilish darajasiga erishildi.

Davlat-xususiy sherikchilik asosida qurilgan, ishga tushirilgan va subsidiya ajratilgan talabalar turar joylari bo'yicha yillik reja 9 770 o'rin etib belgilangan bo'lib, ushbu reja to'liq — 100 foiz bajarildi. Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tartibida o'zgarishlar kiritilganligi sababli 2024-yilda rejadagi tanlovlar tashkil etilmagan. Shu sababdan ijro darajasi 79,3 foizni tashkil etdi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar oliy ta'lim tizimidagi barcha sohalarni qamrab olmoqda. Asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan: ilmiy salohiyatni oshirish, talabalar uchun zamonaviy va qulay turar joylar qurish, ilmiy tadqiqotlar hamda o'quv laboratoriyalarini yaratish, ularni ilg'or texnologik jihozlar bilan ta'minlash, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma ta'lim dasturlari asosida akademik mobillikni kengaytirish, yuqori malakali professor-o'qituvchilarning salohiyatini oshirishga doir dasturlarni moliyalashtirish.

Shu o'rinda, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarning davlat byudjeti hisobidan, qaytarish shartisiz asosda o'qish to'lovlari qoplanayotganligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun qo'shimcha kvotalar ajratilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishga doir mahalliy va xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida eng maqbul moliyalashtirish usuli — bu davlat byudjeti va xususiy sektor mablag'larini o'zida mujassam etgan aralash moliyalashtirish modeli hisoblanadi.

Biroq, agar nufuzli oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilib, ta'lim faqat tijorat asosida tashkil qilinadigan bo'lsa, bu holat davlat buyurtmasi asosida qabul kvotalarining qisqarishi fonida salbiy ijtimoiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Natijada iqtidorli, biroq moliyaviy imkoniyatlari cheklangan yoshlarning ta'lim olish imkoniyati keskin kamayadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda intellektual salohiyatga ega kadrlarning o'zini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini pasaytiradi va mamlakatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018. – 72 b.

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.08.2022 yildagi 447-son <https://lex.uz/uz/docs/-6156799>



2. Azimov A.E. Ta'lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi // Zamonaviy ta'lim, 2014. – №2. – B. 17–22.
3. Mingat A., Tan J. The Full Social Returns to Education: Estimates Based on Countries' Economic Growth Performance // Human Capital Development Working Paper No. 73. – Washington, DC: World Bank, 1996.
4. Oliveira T., Pereira P. Who Pays the Bill? Study Cost and Students' Income in Portuguese Higher Education // European Journal of Education, 2009. – Vol. 24(1). – Pp. 111–121.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/319286?ONDATE=31.01.2024>
6. Sh. A. Bakberganovich. Oliy ta'lim muassasalarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari // Scientific Journal. – Impact Factor: 5.423 (2021). – B. 1123.
7. Tashxo'jayev M.M. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlatning roli // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2021. – №2. – B. 48–50.
8. Чепьжова О.К. Государственное финансирование высшего образования: Современные тенденции // Вестник МГУПИ, 2012. – №39. – С. 1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
